

Recent financial reforms, including currency liberalization and improved access to international credit markets, are enhancing trade financing options. The government's focus on developing export credit facilities and strengthening the banking sector is expected to support foreign trade growth. Uzbekistan's planned accession to the World Trade Organization (WTO) by 2025 will further integrate its financial system into the global economy.¹⁰³

Uzbekistan's progress in enhancing its foreign trade is commendable. However, the financial challenges identified in this research highlight the need for further systemic reforms. The government must prioritize currency stabilization to mitigate exchange rate risks that impact trade costs. Additionally, expanding access to global credit markets and developing tailored financial products for SMEs are essential for sustaining trade growth. The establishment of specialized trade financing institutions and export credit agencies could further enhance exporters' competitiveness.

To address these challenges and capitalize on available opportunities, Uzbekistan should implement policies aimed at reducing currency volatility, increasing trade credit availability, and simplifying regulatory procedures to reduce financial burdens on businesses. Expanding digital payment platforms can accelerate cross-border transactions, reducing costs and improving efficiency. Moreover, encouraging public-private partnerships (PPPs) can enhance financial infrastructure and support long-term trade growth. By adopting these measures, Uzbekistan can create a more resilient financial environment that facilitates sustainable trade expansion. Uzbekistan's foreign trade sector is closely linked to its financial system. Addressing currency volatility, improving access to trade credit, and modernizing financial infrastructure are essential for enhancing trade performance. By leveraging its strategic location and strengthening its financial sector, Uzbekistan can unlock new trade opportunities and achieve sustainable economic growth.

TASHQI SAVDO SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH

*Allamberganov Xushnud Allamberganovich,
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashqi savdo salohiyatini yuksaltirishda iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini tashkil etish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit soʻzlar. Savdo, tashqi savdo, salohiyat, tashqi savdo salohiyati, iqtisodiy hamkorlik, munosabat.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan biri rivojlangan mamlakatlar bilan oʻzaro savdo siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Undan asosiy maqsad mamlakatimizda samarali savdo aloqalarini

¹⁰³ International Monetary Fund (IMF). (2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation.

tashkil etish bo'lib hisoblanadi. Bu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek: "Jahon savdo tashkilotlariga a'zo bo'lish bo'yicha asosiy muzokaralarni yakunlab, ichki qonunchilikni moslashtirish, yangi standartlarni joriy etish ishlarini jadallashtiramiz. Eksport hajmi tariximizda ilk bor 23 mlrd. dollardan ortadi [1]. Shunday ekan, oqilona savdo siyosati orqali rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu borada hozirgi kunda savdo siyosati amalga oshirilib, natijada savdo sohasi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, savdo siyosati rivojlangan mamlakatlar soni ko'pchilikni tashkil etadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar borasida O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, u 30 yillik tarixga ega. O'zbekistonda yirik ishlab chiqarish salohiyati shakllangan bo'lib, bu O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanish asosini tashkil etadi. Sanoat tarkibidagi siljishlar, birinchi navbatda, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning o'rta muddatli maqsadlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarini har yili kamida 8 foiz darajasida ushlab turish nazarda tutilgan. Tashqi savdoni samarali rivojlantirish va shu orqali tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy maqsadi tashqi savdo salohiyatini yuksaltirishdan iborat bo'ladi. Bu borada mamlakatimizning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalari amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimizda asosiy hamkorlik yo'nalishi savdo-sotiq munosabatlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Zamonaviy savdo boshqa tarmoqlar orasida eng ko'p xususiy va jamoa korxonalari bilan ajralib turadi va biznes yuritishning eng keng tarqalgan sohasidir [2]. Zamonaviy tashqi savdo xalqaro savdoning shakli bo'lib hisoblanadi. Bu ishlarni amalga oshirishda tashqi savdo xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakli bo'lib maydonga chiqadi. Ushbu savdo orqali mamlakatlar tovarlar guruhini ishlab chiqarishga ixtisoslashadilar va ularni jahon bozoriga olib chiqish orqali undan munosib o'rinni egallashga harakat qiladilar [3]. Tashqi savdo salohiyati tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda mamlakatning tashqi savdo salohiyatini to'liq va ishonchli baholash hukumatning to'g'ri tashqi iqtisodiy siyosat olib borish va tashqi savdoni rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishning asosiy vazifasi hisoblanadi [4]. Ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish uchun hamkorlik tashkilotlari bilan aloqalarni rivojlantirish lozim.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarmoya, jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmini oshirmasdan turib, ushbu muammoni hal etib bo'lmaydi. Iqtisodiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalar jalb qilish yaxshi yo'lga qo'yilgan investitsiya siyosati bilan birgalikda qabul qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu esa iqtisodiyotga qo'shimcha kapital kiritish va zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni kiritish, ichki bozorda raqobatga ijobiy ta'sir ko'rsatish, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro savdoni rivojlantirish shaklida namoyon bo'ladi. Bu borada tashqi savdo mamlakat

iqtisodiy o'sishining kuchli "katalizatori" bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni samarali rivojlantirish, tadbirkorlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotga valyuta mablag'larini kirib kelishiga xizmat qiladi. Bu borada tashqi savdo iqtisodiyotning eng muhim tarmog'i bo'lib, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda samarali va raqobatbardosh savdo tarmog'ini yaratish maqsadi sifatida O'zbekistonning o'rta uzoq muddatli strategiyasini asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yangi global hamkorlikni mustahkamlash borasida samarali tashqi siyosat amalga oshirildi. Chunki, zamonaviy globallashtirish sharoitida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bevosita uning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuviga bog'liq bo'ladi [5]. Shu bois, mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. Bu holatda mamlakatimizda tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy tamoyillari quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi.

- turli g'oyalar ta'siridan qat'iy nazar, savdo-iqtisodiy munosabatlarni keng rivojlantirish;

- ikki va ko'p tomonlama asosda teng huquqlilik va o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish;

- xalqaro huquq normalarining milliy norma va qoidalarga nisbatan ustuvorligini ta'minlash.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aloqalari yildan yilga rivojlanib borib, unda diplomatik aloqalarni o'rnatgan davlatlarining alohida o'rni mavjud. Xususan, 2023-yil iyun holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi BMTga a'zo davlatlar va uning kuzatuvchilari bilan ham diplomatik munosabatlarni o'rnatgan. Ularning aloqa o'rnatish shakli Nyu-York shahrida imzolangan qo'shma bitim bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston jahonning 200 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatimizning jahondagi tashqi savdo aylanmasiga nisbatan salmoqli hissasi Xitoyda (18,5 %), Rossiya Federatsiyasida (14,6 %), Qozog'istonda (8,1 %), Janubiy Koreyada (6,5 %), Turkiyada (5,7 %), Germaniyada (2,2 %) va Qirg'izistonda (2,1 %) qayd etilgan. Shuningdek, o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, tashqi savdo aylanmasi hajmi 2019-yil yanvar-iyul oylarida 24,5 mlrd. dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 mlrd. dollar qiymatga oshgan. Tashqi savdo aylanmasi tarkibiy dinamikasida ijobiy siljishlar ham kuzatilmoqda. Ya'ni, o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi 1,8 foizga ortgan. Boshqa xorijiy hamkor-davlatlar bilan savdo iqtisodiy munosabatlar davom etmoqda. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulishi 66,8 foizga yetib (16,7 mlrd. dollar), o'tgan yilning mos davridagi tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 50,6 foizga oshgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor davlatlarning 5 tasida faol tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Qirg'iziston (347,2 mln. dollar), Afg'oniston (315,6 mln. dollar), Tojikiston (88,7 mln. dollar), Fransiya (27,3 mln. dollar) va Eron (16,2 mln. dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlat bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda [6]. So'nggi yillarda

O'zbekistonning yangi, pragmatik va faol tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqaviy hamkorlik jadallashib, natijada savdo-iqtisodiy aloqalari yaxshilandi. Xususan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro savdo aylanmasi 2019-yilda 5,2 mlrd. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, 2020-yilda esa global pandemiyaga qaramay, ushbu ko'rsatkich 5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida respublikamizning tashqi savdo aylanmasi hajmi 40,1 mlrd. dollarni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 7,3 mlrd. dollarga yoki 22,2 foizga oshdi. Tashqi savdo aylanmasi eksport hajmi 15,5 mlrd. AQSH dollarga yoki 23,8 foizga oshdi va import hajmi esa 24,6 mlrd. AQSH dollarga yoki 21,2 foizga yetdi. 2022-yilda 9,1 mlrd. AQSh dollari qiymatiga teng passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Boshqa statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aloqalari 2023-yil yanvar oyida 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,9 foizga oshib, uning jami tashqi savdodagi ulushi 73,0 foizni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar holatiga ko'ra, 1361,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 479,8 mln. AQSH dollarga yetgan bo'lsa, import hajmi esa 881,8 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining yuqori ko'rsatkichlari Rossiya (50,6 %), Qozog'iston (24,5 %) hamda Qirg'iziston Respublikasi (4,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'lib importni mahalliy ishlab chiqarishga almashtirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish hisoblanadi. Ammo, import o'rnini bosish siyosati eksportni rag'batlantirish siyosati bilan birgalikda olib borilishi mumkin emas. Mazkur siyosatni amalga oshirish mamlakatlar import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko'maklashish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishni sekinlashtirish bilan namoyon bo'ladi. O'zbekistonda savdo rejimi tovarlarni eksport qilishni cheklash, valyuta tushumlarini oshirib yuborilgan kurs bo'yicha sotish, oraliq tovarlarni import qilishdagi muammolar tufayli eksportni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, mamlakatimizning tovar eksporti tarkibida paxta tolasi, tabiiy gaz, oltin va uran kabi tovarlar ustunlik qiladi. Tayyor mahsulotlarning umumiy eksportdagi ulushi past ulushni tashkil etadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda O'zbekiston jahon mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarini amalga oshirmoqda. Mazkur jadvalga asosan, amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi kelishuvlar asosida amalga oshirilgan, ba'zilarida o'sish, ba'zilarida esa kamayish kuzatilgan. Mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalarini olib borish natijasida eksportni rag'batlantirish siyosati amalga oshiriladi. Bu borada eksportni rag'batlantirish siyosatining yuqori samaradorligiga va import o'rnini bosuvchi siyosatning past samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'pgina holatlar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- eksportni rag'batlantirish siyosatini amalga oshirish davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullaridan ko'proq foydalanishni nazarda tutadi, import o'rnini bosish siyosati esa davlat tomonidan tartibga solishning to'g'ridan-to'g'ri usullariga asoslanadi.

- eksportga yo'naltirilgan siyosat olib borilganda ko'proq mahalliy firmalar o'z mahsulotlarini jahon bozorida sotadilar. Bu yerda ular narx va mahsulot sifati bo'yicha kuchli raqobatga duch keladilar.

- import o'rnini bosish siyosati import proteksionizmining yuqori darajasi natijasida ichki bozorda tovarlar narxining oshishi eksportga bo'lgan rag'batlarni pasaytiradi va ichki bozorda esa tovar sotishni rag'batlantiradi.

- import o'rnini bosish bilan solishtirganda eksportni rag'batlantirishning afzalligi shundaki, birinchi siyosat miqyosda tejashga erishish imkonini beradi.

- import o'rnini bosish siyosatiga xos bo'lgan yuqori proteksionizm muqarrar ravishda jamiyat nuqtai nazaridan "ijara foydasini izlash" ko'rinishidagi "nosamarali" xarajatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

- import o'rnini bosish siyosatini yuritishda import proteksionizmining yuqori darajasining muqarrar oqibati importning o'sishi bo'lib, vaqt o'tishi bilan mavjud sektorning ulushi oshib boradi.

- import o'rnini bosish siyosatini tanlagan, aholi omonatlarini muomalaga jalb qilishni cheklab qo'ygan va inflyatsiyaning qo'shimcha manbasiga aylangan mamlakatlarda moliya bozorining rivojlanmaganligi va foiz stavkalari ustidan davlat nazoratining mavjudligi natijasida yuqori inflyatsiya darajasi aniqlanadi.

- import o'rnini bosish siyosatini amalga oshirishning dastlabki yillari natijalari proteksionizmni yanada kuchaytirishga imkon beradi.

- import o'rnini bosish siyosatini olib borish pirovard natijada import va jahon bozorida mahalliy tovarlarning raqobatbardoshligining pasayishi hisobiga eksport hajmining qisqarishini anglatadi.

Xulosa shuki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi tashqi iqtisodiy siyosat bir-biriga bog'liq bo'lib, turli xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu borada mamlakatimizda ochiqlik, innovatsiya va yangilanish, iqtisodiy liberallashtirish, bozorni rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy qilishga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jihatlar mamlakatimiz tashqi siyosatiga ijobiy ta'sir etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ochiq iqtisodiyotga ega va izchil, aniq iqtisodiy siyosat olib borilmoqda. Bu borada O'zbekiston uchun turli mintaqalarda joylashgan rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli, samarali va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi. 2022-yil 22-dekabr. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

2. Аптекарь С.С., Алексеев С.Б. Особенности формирования стратегического потенциала розничного торгового предприятия. // «Труд. профсоюзы. общество», июль-сентябрь 2015. № 3 (49). - с. 17.

3. Джумонов Д.С., Мамадиёров О.У. Халқаро савдо. Маърузалар матни. - Т.: ТМИ, 2013. – 3 б.

4. Швед А.В. Потенциал внешней торговли: дефиниции и подход к оценке. [Электронный ресурс]. <http://bsue.by/>

5. Nazarova G.G., Haydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2008.

6. <https://invexi.org/uz/press/the-foreign-trade-turnover-of-the-republic-of-uzbekistan-in-january-2023-amounted-to-5-billion-us-dollars/>

TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY HOLATINI YAXSHILASH YO'LLARI

Erkinxojiyev I.I.

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Bank tizimlari moliyaviy xizmatlari samaradorligi yuqori darajada ta'minlanmaganligi, tijorat banklarida xizmatlarni hujjatlashtirish bo'yicha samarali tizimning shakllantirilmaganligi va shu bilan bog'liq ravishda tashkil etilmaganligidan kelib chiqadi. Ushbu holat tijorat banklari xizmatlarining tartibga solinishi, hujjat almashinuvi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bo'g'liq bo'lgan vaziyatlarda kechikishlarga olib kelishi mumkin. Bu tijorat banklarining mijozlarga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar soddaligi hamda tezkorligi pasayishiga olib kelgan holda, bank amaliyotlari samaradorligini oshirish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Kreditlash jarayoni bank yoki banksiz moliyaviy tashkilotlar tomonidan kredit mablag'larini taqdim etish tartib-qoidalari va mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi tizim sifatida ifodalandi. Bankning kreditlash jarayoni – bankning kreditlash muddati va mexanizmlarining o'zgarishi sifatida ifodalangan tashkiliy bosqichlar ketma-ketligi ko'rinishidagi bank kreditlarining harakati sifatida aniqlanadi, banksiz kreditlash jarayoni – bankdan tashqari kreditlash muddatlari va mexanizmlarining almashinishi sifatida ifodalangan tashkiliy bosqichlar ketma-ketligi ko'rinishidagi kreditlarning harakatidir. Bank kreditlash xizmatlari davlat, xususiyy va ustav fondida davlat ulushi bo'lgan banklar tomonidan, banksiz (bankdan tashqari) kreditlash – turli xil tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Jahon kapitallar bozorida raqobat muhitining jadal rivojlanishi natijasida aholining jamg'armalarini kredit bozoriga jalb etish dolzarblik kasb etib bormoqda. Bu borada, global darajada yetakchi bo'lgan banklar jismoniy shaxslar uchun depozit siyosatini nomoliyaviy omillar asosida shakllantirishga e'tibor qaratishmoqda. Jumladan, depozitlar doirasi qamrovini mijozlar piramidasi asosida shakllantirish, depozitlarning bankning moliyaviy natijalariga ta'sirini baholash, depozitlar hajmini aktivlar tarkibidagi ulushini yanada